

ANATOMIYA DARSLARIDA PISA TESTLARIDAN FOYDALANISH

*Umirov N.U.**Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**Vafoqulova Sh.G'.,**Mirsaidov F.S.**Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari.*

Annotatsiya. Maqolada PISA (The Program for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturida kreativ fikrlashni baholash yo'nalishi haqida asosiy tushunchalar, baholashda e'tibor qaratiladigan muhim jihatlar va baholash yondashuvlari hamda PISA testlaridan anatomiya darslarida foydalanishning uslubiyati hamda afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: PISA, baholash, yondashuvlar, qobiliyat, layoqat, tadqiqotchilik, tahlil, reproduktiv topshiriqlar.

Аннотация. В статье описаны основные понятия направления оценивания творческого мышления в международной программе оценивания PISA (The Program for International Student Assessment), важные аспекты и подходы оценивания, а также методика и преимущества использования тестов PISA на занятиях по анатомии.

Ключевые слова: PISA, оценка, подходы, способности, компетентность, исследование, анализ, репродуктивные задачи.

Annotation. The article describes the basic concepts of the direction of assessing creative thinking in the international PISA assessment program (The Program for International Student Assessment), important aspects and assessment approaches, as well as the methodology and advantages of using PISA tests in anatomy classes.

Key words: PISA, assessment, approaches, abilities, competence, research, analysis, reproductive tasks.

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'limning umumiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish ham aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

Ta'lim tizimidagi islohotlar yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarining yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Hozirgi kunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhim hisoblanadi. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik

faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondshilishni nazarda tutadi.

Barcha o'quv predmetlari qatorida biologiya fani ham umumiy dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi. Organizmlar va ularning tarqalishi, tuzilishi, morfologiyasi, fiziologiyasi, o'zgarishlari hamda bu o'zgarishlarning sodir bo'lishi qonuniyatlari biologiya ta'limining mazmunini tashkil etadi. Xususan biologiya fanning bir tarmog'i bo'lgan odam anatomiyasi fani ham o'quvchilarning o'z tanasining tuzulishi va funksiyasi haqida chuqur bilimlar olishiga imkon beradi. Anatomiya darslarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish uchun dars mashg'ulotlarida xalqaro baholash tizimlaridan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi.

PISA (The Programme for International Student Assessment) -o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni hosil qilishga undashdir.

Ushbu dastur 1997 yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi, birinchi marta 2000 yilda o'tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo'nalishiga afzallik berilib, ja'mi testlar majmuasining deyarli 50 % shu fanga mansub bo'ladi. 2000 yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan. Aynan 15 yoshli o'quvchi yoshlar o'rtasida dasturni amalga oshirilishi sababi ushbu yoshda aksar iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo davlatlarning o'quvchi yoshlari majburiy ta'limning oxirgi bosqichiga o'tishadi.

Dasturning asosiy maqsadi o'quvchilarning maktabda olgan bilimni emas, balki olgan malaka, bilim va ko'nikmalarni hayotda qo'llashni bilish va natijani tahlil qila olish, vaziyatdan chiqqa olish, baholashni bilishni tekshirish.

Xo'sh PISA dasturining maqsadi nima, u qanday va PISA savollari qanday prinsipga asoslangan holda tuziladi?

PISA - dasturi o'quvchilarning katta hayotga tayyorgarlik darajalarini motivatsiyalash, ishontirish va bilimlarini mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi. 2000-2015 yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda – Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada - Finlyandiya, Estoniya, Shveytsariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o'rta ta'lim tizimi yaxshi rivojlangan.

Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilish, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

Anatomiya dars mashg'ulotlari nazariy va amaliy turlarga bo'linadi. O'quvchilar nazariy va amaliy dars mashg'ulotlarida olgan bilimlarini o'qituvchi tomonidan nazorat qilish hamda ularni baholash talab etiladi. Odatda doimiy dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilimni formativ choraklarda esa summativ

baholashni amalga oshiriladi. Anatomiya darslarida formativ va summativ baholashni amalga oshirish uchun an'anaviy test topshiriqlaridan foydalaniladi. An'anaviy test topshiriqlarining kamchiligi o'quvchilar bilimni bir tomonlama baholay oladi ya'ni faqatgina xotirasi yaxshi o'quvchi yaxshi natija olishi mumkin.

Hozirgi kunda o'quvchilarni dars mashg'ulotlarida faqatgina bilimlarni yod olishga o'rgatish bilan ularning bilimni yuqori saviyaga ko'tarib bo'lmaydi. Dars mashg'ulotlaridan maqsad o'quvchilarni mustaqil va kreativ fikrlashga o'rgatish hamda o'quvchilar hamkorlikda ishlab o'z fikrlarini erkin ravishda bayon etish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Demak o'quvchilarning mantiqiy, muammoli savollarni kutulmagan vaziyatlarda hal qila olishga erishish uchun PISA testlaridan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi.

PISA tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri tabiiy fanlar savodxonligi . Tabiiy-ilmiy savodxonlik - bu shaxsning tabiiy fanlarga bog'liq masalalar bo'yicha faol fuqorolik pozitsiyasiga ega bo'lishi va tabiiy g'oyalarga qiziqishga tayyorgarlik qobiliyatidir. Tabiiy-ilmiy savodli inson tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolar muhokamasida ishtirok etishga intiladi va buning uchun quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi, hodisalarni ilmiy tushuntiradi, baholaydi va ilmiy tadqiqotlarni rejalashtiradi, ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan sharhlaydi.


Tabiiy - ilmiy savodxonlikning asosiy ko'nikmalari

Real holat, muammoni -

1. Tushuntirish
2. O'rganish
3. Hulosa qilish

PISA topshiriqlari kompyuterda bajariladi. Test topshiriqlari tayyor javobli bo'lib, ulardan to'g'risi tanlanadi. Shuningdek javobsiz testlar ham bo'ladi. Bularga o'quvchi to'liq yoki qisqa javob berishi so'raladi. Ayrim test topshiriqlari bitta hayotiy vaziyatga oid, biroq turli qiyinlik darajasidagi test savollaridan iborat bo'ladi.

1-PISA test topshirig'i. Singa kasalligini chalingan Temur qaysi mahsulotni ko'proq iste'mol qilish kerak?



2-PISA test topshirig'i.

Anvar va Dilshod kursdoshlar. Anvar Jizzax viloyati Baxmal tumanida yashaydi Dilshod esa Sirdaryo viloyatida yashaydi. Ular birgalikda Tog'ga ekspeditsiyaga borishdi. Tog'ning balandligi 3000 metr toqqa chiqish davomida Dilshod daqiqasiga 25-27 marotaba nafas oldi, Anvar esa daqiqasiga 17-19 marotaba nafas oldi.

A.Nima uchun ularda nafas olishda farq bor.

B.Bu farqning fiziologik jihatini tushuntirib bering.

2-PISA test topshirig'i javobi. A.Tog'li hududda yuqoriga ko'tarilgan sari havoning bosimi kamayib kislorod yetishmovchiligi bo'ladi shuning inson kislorodga talabini to'ldirish uchun tez-tez nafas oladi.

B.Jizzax viloyati Baxmal tumani tog'li hudud, Sirdaryo viloyati cho'l hududi hisoblanadi. Tog'li hududda yashovchi aholi qonida eritrotsitlar miqdori normaga nisbatan ko'proq bo'ladi, tekislikda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlar soni normada bo'ladi. Anvarning qonida eritrotsitlar miqdori ko'p bo'lganligi uchun yuqoriga chiqishda qiynalmadi Dilshod esa yuqoriga chiqishda qiynaldi.

3- PISA test topshirig'i. Jasur uyiga it olib keldi. U bir necha kun davomida itga svet yoqib undan so'ng unga ovqat berdi, bir kuni svet yorug'ida ovqat berganida kuchli shovqin bo'ldi va it ovqat yemay qo'ydi. Buning sababini tushuntirib bering.

3- PISA test topshirig'i javobi. Bilamizki shartli va shartsiz ta'sirlovchilar bo'ladi. Bu yerda svet yorug'i shartli ta'sirlovchi ovqat esa shartsiz ta'sirlovchi svet yorug'ida bir necha marotaba ovqat berilishi ta'sirida itda so'lak ajraladi. Lekin shartsiz ta'sirlovchini tormozlovchi ta'sirlar ham bo'ladi. Kuchli shovqin ta'sirida itda so'lak ajralishi to'xtagan shuning uchun it ovqat yemay qo'ygan.

Xulosa qilib aytganda, PISA topshiriqlari o'quvchining bilimni emas balki, ularning egallagan bilim va ko'nikmalarini duch kelgan vaziyatlarda qo'llay olishini, fikrlashini baholaydigan sistema hisonblanadi. Bundan tashqari PISA topshiriqlarida tabiiy fanlar uyg'unligini, ularning o'zaro bog'liqligini, integrallashganini ko'rish mumkin. Bu bilan o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalar yanada rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PF-5712 sonli Farmoni.
2. J. Tolipova va I. Jumanova "Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar" T. Xalq ta'limi 2002 yil.
3. Davlat ta'lim standrati - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 187-Qarori, 2017 yil 6 aprel.
4. O. Mavlonov, T. Tilavov, B. Aminov Biologiya (odam va unung salomatligi)
5. Gafforov Ya. X. (2020). Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Индия. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.

6. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. (2020). Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India.
7. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(5), 212.